



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 3249,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Yashnobod tumanida xizmatlar sohasining o'sish sur'ati 135,6 % ga yetdi.

2018 yil yanvar oyida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 3 249,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 14,5 % ga oshdi.

Eng yuqori xizmatlar hajmi savdo xizmatlari (891,7 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (883,3 mlrd. so'm), transport xizmatlari (385.7 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (332,0 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.


Jami xizmatlar hajmida eng yuqori ulushni Yunusobod, Mirobod, Shayxontohur, Yashnobod va Chilonzor tumanlari tashkil etmoqda.

Asosiy xizmat turlari bo'yicha xizmatlar hajmining solishtirilishi, mlrd.so'm



Xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari (27,4 %), moliyaviy xizmatlar (27,2 %), transport xizmatlari (11,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,2 %) yuqori ulushlarni tashkil etmoqda.

2018 yil yanvar oyida xizmatlar tarkibi, % da



Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi - 50,9%


Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi yuqori bo'lmoqda – 65,5%. Bu uning harakatchanligi va xizmat narxining nisbatan yoqori emasligi bilan izohlanadi.

Moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar eng yuqori ulushni egallaydi (85,7%)

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyotning turli sohalariga va aholining kundalik hayotiga chuqur kirib bormoqda. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush telekommunikatsiya xizmatlariga to'g'ri keladi (79,5%)

2018 yil yanvar oyida eng yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (148,6 %), sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (126,3 %), transport xizmatlarida (124,3 %), shuningdek aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (122,2 %) kuzatildi


2018 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'ati, % da



Bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari eng yuqori ulushni tashkil etadi.


Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Tumanlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida savdo xizmatlarining ulushi, % da



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng yuqori ulush telekommunikatsiya xizmatlariga (mobil aloqa, Internet tarmog'i, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.) to'g'ri keladi - 79,5 %.


Tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Hududlar o'rtasida eng yuqori ulush Yunusobod tumani (4,9 %), Mirobod tumani (2,3 %), Yakkasaroy tumani (1,0 %), Shayxontohur tumani (0,8 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 148,8 % ni tashkil etdi. Bozor xizmatlari hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar oyida tumanlar bo'yicha moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da



**2018 yil yanvar oyida tumanlar bo'yicha xizmatlar
ishlab chiqarish hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	3 249,6	114,5
Uchtepa tumani	165,7	101,9
Bektemir tumani	84,3	101,9
Yunusobod tumani	601,0	121,2
Mirzo-Ulug'bek tumani	277,1	109,8
Mirobod tumani	584,0	128,8
Shayxontohur tumani	362,8	104,2
Olmazor tumani	163,0	105,6
Sergeli tumani	177,6	135,3
Yakkasaroy tumani	217,6	105,4
Yashnobod tumani	306,8	135,6
Chilonzor tumani	289,5	104,0
Tumandan tashqarida	20,2	44,3

Tumanlar o'rtasida eng yuqori hajm Yunusobod tumani (601,0 mlrd.so'm) va Mirobod tumani (584,3 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Olmazor (163,0 mlrd.so'm) va Bektemir (84,3 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishda eng katta ulushni Yunusobod tumani (18,5%), Mirobod tumani (18,0%), Shayxontohur tumani (11,2%) va Yashnobod tumani (9,4 %) egallaydi.

2018 yil yanvar oyida Toshkent shahar bo'yicha xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, % da



Ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmida eng kichik ulushni Bektemir (2,6%), Olmazor (5,0%), Uchtepa (5,1%) va Sergeli (5,5 %) kabi tumanlar egallaydi.